


V. A. Vasilevning fikricha, “iqtisodiy klasterlar iqtisodiyotning tobora kuchayib borayotgan globallashuvi sharoitida raqobatbardosh ustunliklarga tez erishishga qaratilgan barcha manfaatdor tomonlarning sa’y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shaklidir” [6]. Bundan tashqari, “kuchlilar kichikni tortib olish” modeli muallifning hududiy bozorning monopolistik modeliga erishish masalasini ilgari surayotganidan dalolat beradi, bunda hukmronlik mavqeini oxir-oqibat kichikroq hududiy ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lgan eng faol turistik klaster egallashi lozim.

Bugungi kunda jahon tajribasida mintaqaviy iqtisodiyotda samarali tatbiq etilayotgan integratsion model sifatida klaster modeli alohida o’rin egallaydi. Mustaqil Hamdo’shtlik Davlatlari olimlari T. V. Saxno va N. N. Volkovalarning fikricha, “klasterning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o’zaro hamkorlik umumiy modellardan asosiy farqli jihatlaridan biri hududiy mahalliyashtirish tamoyilidir” [7]. Shu bilan birga, klaster geografiyasining ko’lami keng bo’lib, u muayyan shahar yoki hudud, mamlakat darajasida hamda ayrim hollarda qo’shni davlatlarga kengayishi mumkin.

M. T. Alimovning ta’kidlashicha, “hududiy davlat boshqaruvi organlari tarkibida istiqbolli turistik klasterning shakllanishi va rivojlanishiga ko’maklashish, klaster doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, uning rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish bo’yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini nazorat qiluvchi ishchi guruhni tashkil etish mazkur yo’nalishdagi faoliyat samaradorligini oshiradi” [8].

B. D. Ollanazarovning fikricha, “hududiy turistik klasterni rivojlantirish konsepsiyasi hududiy turistik majmuaning investitsion jozibadorligini belgilovchi hududiy iqtisodiyotning barcha yo’nalishlarini rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlarni o’z ichiga olishi lozim. Ushbu konsepsiya hududda turizm sektorining raqobatbardoshligi va yuqori samaradorligini ta’minlash, tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga yo’naltirilishi zarur” [9].

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko’rsatadiki, yuqorida zikr etilgan iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda klaster usullarini qo’llash masalalarini yanada chuqurroq o’rganish uchun keng ilmiy imkoniyatlar mavjudligini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda klaster loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni tizimli va puxta rejalashtirish ushbu yo’nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Klaster loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida esa turistik tuzilmalarni joylashtirish masalalarini hududiy xususiyatlar va rivojlanish salohiyatini inobatga olgan holda belgilash klaster faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi turizm infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda klaster usullarining amaliy samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar asosan rasmiy statistik manbalar, davlat organlarining ochiq ma’lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va soha bo’yicha olib borilgan avvalgi tadqiqotlar asosida shakllantirildi. Shuningdek, hududiy turizm rivoji, infratuzilma ko’rsatkichlari hamda klasterlash jarayonlari bo’yicha mavjud empirik ma’lumotlardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, dinamik tahlil va tizimli yondashuv usullari qo’llanildi. Klaster modelining hududiy rivojlanishga ta’sirini baholashda statistik ko’rsatkichlarning o’zgarish dinamikasi va o’zaro bog’liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida klaster yondashuvining turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarni rivojlantirish uchun ustuvor tarmoqlarda klasterlarni nafaqat o’rta muddatli, balki uzoq muddatli, strategik istiqbolli hamda globallashuv va xalqaro raqobat jarayonlarining rivojlanishi nuqtayi nazaridan yaratish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun hududiy rivojlanishning strategik maqsadlariga iqtisodiyotning raqobatbardosh tuzilmasini shakllantirishga klasterli yondashuv doirasida erishish uchun yuqorida keltirilgan qoidalarni amalga oshirish mumkin.

Bizning tadqiqotlarimiz hamda O’zbekiston Respublikasining administrativ bo’linishi va mintaqalarni kompleks rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan klasterlarni tashkil qilishda turistik mintaqalarni quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq bo’ladi: Toshkent (Toshkent viloyati va Toshkent shahri); Farg’ona (Farg’ona, Andijon va Namangan viloyatlari); Jizzax–Sirdaryo (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari); Samarqand (Samarqand viloyati va Samarqand shahri); Buxoro–Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari); Janubiy turistik mintaq (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari); Xorazm (Xorazm viloyati); Quyi Amudaryo (Qoraqalpog’iston Respublikasi) turistik mintaqalariga ajratishni taklif qilamiz.




O'rtacha turistik jozibadorlikka ega mintaqalardan iborat birinchi klasterga 4 ta mintaqani kiritishni taklif etamiz. Bu mintaqalarda infratuzilma rivojlanishi sust bo'lib, turistik yuklama hamda xorijiy turistlarning ulushi mahalliy turistlar soniga nisbatan o'rtacha darajadan past. Ushbu klasterga rekreatsion-sog'lomlashtirish resurslarga boy bo'lgan Jizzax–Sirdaryo, Farg'ona, Quyi Amudaryo va Janubiy turistik mintaqalarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi guruh mintaqasiga Toshkent va Samarqandni kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz, sababi bu hududlarga xorijiy turistlar sayyohlik maqsadlari bilan birga xizmat doirasida, ishbilarmonlik yo'nalishida ham tashrif buyuradilar. Shuning uchun mazkur mintaqalar aralash turistik resurslarga (tarixiy-madaniy, rekreatsion) boy hudud hisoblanadi.

Uchinchi guruhga Buxoro–Navoiy va Xorazm mintaqalarini kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz, sababi bu yerda madaniy-tarixiy turistik jozibadorlik nuqtayi nazaridan infratuzilma yetarlicha rivojlangan.

O'zbekistonda turizm mintaqalarining jozibadorlik nuqtayi nazaridan klasterlarga bo'linishi:

- Jizzax–Sirdaryo, Farg'ona, Quyi Amudaryo va Janubiy turistik mintaqalar;
- Toshkent va Samarqand turistik mintaqasi;
- Buxoro–Navoiy va Xorazm turistik mintaqalari.



1-rasm. Turistik mintaqalarning jozibadorlik nuqtayi-nazaridan ixtisoslashtirilgan klasterlarga bo'linishi¹.

Respublikamizning turistik mintaqalarida turizm rivojlanishini baholaydigan maxsus bo'lim va mutaxassislar yo'qligi sababli turistik salohiyatga ega hududlarning rivojlanish strategiyasini loyihalashda iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari sifatida hududning o'z resurslarini aniqlash va ulardan foydalanishga qaratilgan "o'z-o'zini rivojlantirish" tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qoidaga binoan, resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yuritadigan bir nechta hududlarning salohiyatini birlashtirish sezilarli darajada undan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda miqdoriy jihatdan yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shuning uchun ko'p bosqichli va hududlararo o'zaro munosabatlarning ahamiyatini hududlarni rivojlantirishni boshqarish tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinishi muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, respublikamizning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlarga xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta'minlash, ko'rsatilayotgan turistik, mehmonxona va transport xizmatlarini kengaytirish hamda sifatini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan Toshkent viloyatining Chimyon–Chorvoq kurort-rekreasiya zonasi chegarasi doirasida "Chorvoq" erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi farmon qabul qilindi [10]. Bu paytgacha respublikamizda "turistik-rekreasiya zona"larni tashkil etish amaliyoti qo'llanilgani yo'q edi. Bu orqali turistik-rekreasiya zonalarni tashkil etish va turizmdagi eng so'nggi innovatsion texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan mintaqalar turistik industriyasining rivojlanishini faol qo'llab-quvvatlash, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishiga, so'ngra esa butun respublika iqtisodiyotining yuksalishini ta'minlash maqsad qilib olindi.

Buni mintaqalar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, masalan, Jizzax erkin iqtisodiy zonasida tahlillarimiz klasterlarni (qishloq xo'jaligi, tog'-konchilik, turistik-dam olish va boshqalar) rivojlantirish uchun infratuzilma imkoniyatlari yetarli ekanligini ko'rsatadi.

Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy-madaniy hamda tabiiy yodgorliklar saqlanib qolgan hududlar, tabiatni muhofaza qilish maqomiga ega bo'lgan hududlarda alohida qo'riqlanadigan yerlarning mavjudligi, dam olish va faol rekreatsiya uchun yaroqli bo'lgan turli-tuman tabiiy resurslarga ega Jizzax mintaqasining beqiyosligi viloyatni respublikada eng jozibali rekreatsion turistik yo'nalishlardan biriga aylantirish imkonini beradi.

¹ Tadqiqotchi ishlanmasi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-son² qarori qabul qilinib, unga muvofiq "Samarqand — Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" targ'ibot kampaniyasi yo'lga qo'yildi. Shunga ko'ra, 2026-yil 1-yanvargacha tadbirkorlar 4 yulduzli va undan yuqori toifadagi mehmonxona uchun zarur tovarlarni olib kimganda bojxona bojini hamda Samarqand turistik markazida qurilish uchun "vaqtincha olib kirish" bojxona rejimida olib kiriladigan uskunalar uchun davriy bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etiladi. Shuningdek, Samarqand turistik markazi hududida chet ellik shaxslar uchun boj olinmaydigan savdo do'konlari tashkil etiladi. 2023-yil 1-sentabrgacha shaharlararo va xalqaro avtobus qatnovlari axborot texnologiyalari orqali yo'lga qo'yiladi. Mazkur tizimda chiptalarni "Uzbus" platformasida xarid qilish tartibi, avtobuslarga GPS qurilmalarini o'rnatish hamda monitoring qilish bo'yicha yagona platforma yaratiladi [11].

Shunday qilib, hududiy turizmni rivojlantirish dasturlarida odatda turistik klasterlar turistik va madaniy yo'nalishning o'zaro bog'langan obyektlari — joylashtirish vositalari, ovqatlanish tashkilotlari, zarur asosiy va yordamchi infratuzilma bilan jihozlangan qo'shimcha hamda tegishli xizmatlar majmuasi ekanligi ko'rsatiladi. Avtoturistik klasterlar iste'molchilarga turistik, qo'shimcha va turdosh xizmatlarni bir-birini to'ldiradigan hamda avtoturistlar uchun madaniyatli xizmat ko'rsatish shartlarini kafolatlaydigan tashkilot va korxonalarni birlashtiradi.

Milliy va xalqaro turizm bozorlarida klasterlarni joylashtirish bo'yicha reklama-axborot ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur. Aslida, taklif etilayotgan dastur faqat klasterlarni shakllantirishni nazarda tutadi, biroq ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi kirish va ichki turizm manfaatlarini uchun alohida tuzilmalarining holatiga bog'liq.

Klasterlash jarayoni — umuman olganda mamlakatimiz iqtisodiyoti, xususan turizm sohasi rivojlanishidagi innovatsion usul va davlat uchun ahamiyatli tendensiyalardan biridir. Ta'kidlash kerakki, klaster yondashuvining innovatsion komponenti ma'muriy-huquqiy va siyosiy sharoitlarga emas, balki butunlay boshqacha ichki va tashqi muhit sharoitlari hamda omillari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, tahlil natijalari ko'rsatmoqdaki, turizm klasterining innovatsion salohiyati innovatsion mahsulotlar va ishlanmalarni yetkazib beruvchilarning butun tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunga quyidagilar kiradi: milliy va hududiy tarmoq tuzilmalari (vazirliklar, agentliklar, turizm departamentlari)ning barcha tartibga solish funksiyalari; hokimiyat va boshqaruv organlari bilan davlat-xususiy sheriklik modeliga muvofiq klaster doirasida hamkorlik qiluvchi ishbilarmon doiralar vakillari; ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar; turizmni rivojlantirish borasida turli tashabbuslar bilan harakat qilayotgan mahalliy hamjamiyat va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud turistik infratuzilmaning miqdori va sifati, transport vositalari imkoniyatlari, geografik joylashuvi, turistik xizmatlarning turli-tumanligi hamda istalgan turini yaratish imkoniyatlari tahlil qilinishi natijasida "Samarqand turistik klasteri"ga viloyatdagi bitta shahar va to'rtta tumanda joylashgan turistik obyektlar hamda xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni kiritish mumkinligi aniqlandi. Ularning turistik ixtisosligi, tabiiy-iqlim sharoitlari va joylashtirish hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan deyarli farq qilmasligi ularni bir klaster tizimiga birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

1-jadval. 2023-yilda O'zbekistonning turli sayyohlik yo'nalishlarining qiymati³

	Soni, birlik	Qiymati, mln. so'm	Shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan:	
			soni, birlik	qiymati, mln. so'm
Sotilgan sayyohlik yo'nalishlari-jami	262353	1687575,2	175415	1571564,2
undan bevosita aholiga	259162	1496492,2	172224	1380481,7
shu jumladan:				
O'zbekiston hududi bo'yicha				
O'zbekiston fuqarolariga	159404	146139,5	79047	115065,2
chet el mamlakatlari bo'yicha				
O'zbekiston fuqarolariga	52689	872540,9	48647	856017,1
ulardan MDH mamlakatlari bo'yicha	6582	12251,7	3124	9059,2

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7283107>

3 Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



O'zbekiston hududi bo'yicha MDH fuqarolariga	5468	81104,2	3692	94992,3
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga boshqa chet el mamlakatlari (MDH mamlakatlaridan tashari)	41601	396708,2	5437	80339,0

1-jadvaldan O'zbekistonda 2023 yildagi mavjud turistik xizmatlar bozorini bilib olish mumkin. Dissertatsiya ishi doirasida Samarqand viloyatida turizm xizmatlari bozorida iste'molchilar motivatsiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirishda nisbatan hududga mos statistik ma'lumotlarga asosanib iste'molchilar motivatsiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirish lozim.

Samarqand viloyati Respublikaning boshqa hududlariga nisbatan o'zining turistik imkoniyatlari jihatdan bu ko'rsatkich past ekanligini anglatadi (2-jadval).

Fikrimizcha, bu xolatdan xulosa qilinsa hududda taklif qilinayotgan turistik mahsulot potensial turist (istemolchi)larning motivatsiya o'rganilmagan xolda shakllantirilganligini anglatadi.

2-jadval. 2023-yilda Samarqand viloyati sayyohlik yo'nalishlarining Respublikadagi qiymati⁴

	Soni, birlik	Qiymati, mln. so'm	Shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan:	
			soni, birlik	qiymati, mln. so'm
O'zbekiston Respublikasi	262353	1687575,2	175415	1571564,2
Samarqand	23861	202958,0	23861	202958,0
Viloyatning respublikadagi ulushi, %	9,1	12,0	13,6	12,9

3-jadvalda keltirilgan Samarqandda mehmondo'stlik industriyasi 2023-yil rivojlanishining 2019-yilgagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga yetmagan.

3-jadval. Samarqandda turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy natijalari⁵


Ko'rsatkichlar	Xizmatlar hajmining o'sishi										2023- yilning 2019- yilga nisbati (-/+)
	2014- yil	2015- yil	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil	
Sotilgan sayyohlik yo'nalishlari soni, birlik	6714	4224	4646	3297	5817	26518	1547	5121	10720	23861	-2657
Sotilgan sayyohlik yo'nalishlari qiymati, mil. so'm	16935,3	13244,2	18813,6	36956,2	47197,9	152283,2	971,4	12043,3	65249,7	202958	50674,8
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, birlikda	91	101	107	104	111	139	144	116	165	247	108
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari joylashtirilgan O'zbekiston fuqarolari soni, birlikda	58885	75769	78628	86620	83525	85819	51674	82798	104663	140369	54550
Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, kishi	27438	231171	25616	36709	40456	56229	17612	7832	27817	71338	15109

⁴ Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁵ Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi




2019-yilga nisbatan 2023-yildagi sotilgan sayyohlik yo'nalishlari va qiymati 1-rasmda ushbu yillarda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 108 donaga ko'payishiga qaramasdan nisbatan past ko'rsatkichlarda namoyon bo'lmoqda.




1-rasm. Sotilgan sayyohlik yo'nalishlari usish ko'rsatkichlari⁶

Fikrimizcha bu holat potensial turistlarni viloyatga jalb qilishda motivatsiya vositalari yetarli tashkil etilmaganligidan dalolat beradi.



2-rasm. Samarqand viloyatida mehmonxona va shunga uxshash joylashtirish vositalari usish dinamikasi, dona⁷

Iste'molchilarning xatti-harakatlariga va sayohat qilish to'g'risida qaror qabul qilish jarayoniga ta'sirini kuchaytirish uchun ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lgan turistik motivatsiyaning dominant va ikkilamchi omillarini aniqlash odatiy holdir.



3-rasm. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashgan O'zbekiston fuqarolari soni va xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar o'sish dinamikasi⁸

6 Muallif ishlanmasi.

7 Muallif ishlanmasi.

8 Muallif ishlanmasi.

4-jadval. 2023-yilda Samarqand viloyati ichki turizmining rivojlanish ko'rsatkichlari yosh guruhlariga bo'yicha⁹

	Mamlakat ichidagi safarda bo'lgan uy xo'jaliklari a'zolari soni, ming kishi	Shu jumladan:			
		yosh guruhlariga bo'yicha:			
		16 yosh-gacha	16-25 yosh	26-55 yosh	56 yosh va +
O'zbekiston Respublikasi	201 488,5	475,5	2 725,6	111586,9	86 700,5
Samarqand	28 867,4	80,9	71,8	15 222,4	13 492,3
Viloyatlarning respublikadagi ulushi, %	14,3	17,0	2,6	13,6	15,6

Klasterga kiritilishi taklif qilinayotgan hududlarda sanatoriy va sog'lomlashtirish obyektlarining joylashuvi bo'yicha, 2025-yil holatiga Samarqand shahrida 8 ta, Urgut tumanida 4 ta, Jomboy va Bulung'ur tumanlarida 1tani tashkil etadi.

Hududiy jihatdan tashkil qilinayotgan klasterning umumiy turizm infratuzilmasini shakllantirishda (Samarqand shahri, Urgut, Nurobod, Jomboy, Samarqand tumanlari) turizm turlari va ixtisosligini aniqlab olish ham muhim masala hisoblanadi.

Bu borada olib borilgan kuzatishlar natijasida (5-jadval) 5 ta salohiyatli turistik-rekreasion resurslarga boy mintaqalarning har biri uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi ixtisosligi aniqlandi.

5-jadval. Samarqand mintaqasi turistik klasterida turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari¹⁰

Hudud nomi	Turizm turlari	Turizm ixtisosligi
Samarqand shahri	-tarixiy, madaniy-ma'rifiy; -biznes-turizm; -tibbiy- sog'lomlashtirish; -sport; -shopping turizm.	-mehmonxona majmuasining rivojlanishi; -akvapark tashkil etish; -shaharning ko'ngilochar markazini yaratish; -bolalar ta'lim markazlarini yaratish; -Samarqand mintaqasi umumiy fonini yaratish; -shaharning turistik sohada rivojlantirish rejasini ishlab chiqish.
Urgut	-sport va tibbiy-sog'lomlashtirish; -sarguzashtli; -ekologik;	-sport o'yinlari (milliy kurash va ko'pkari-uloq) bilan birgalikda namunaviy turistik destinasiya yaratish; -davlat ahamiyatidagi geopark-larni yaratish; -spa-kurortlarni yaratish; -ekologik parkni yaratish;
Samarqand tumani	-sport va qishki sport turlari; -ekologik; -sarguzashtli va ekzotik; -etnografiya; -suv sporti; madaniy-ma'rifiy;	-mehmonxona majmuasini yaratish; -tog' -chang' i trassasi bilan ekstrim markaz qurilishi; -vizit-markaz, "Tog' -o'rmon" ekomajmuasini va turistik markazni yaratish; -"Zomin suv ombori"da mahalliy ahamiyatga ega rekreasion maydonda turistik manzilgoh qurish; -sport o'yinlarini (ko'pkari-uloq) rivojlantirish markazini barpo etish.
Nurobod	-tibbiy-sog'lomlashtirish; -madaniy-ma'rifiy; -agroturizm; -qishloq turizmi.	-tibbiy-sog'lomlashtirish bo'yicha jihozlangan sayyohlik obyektlari qurish; -"qishloqda bir kun"- turistik markazini qurish; -katta yo'l yoqasida kemping qurish; -agroturizmning tashkiliy markazini barpo etish.
Jomboy, Bulung'ur	-tibbiy-sog'lomlashtirish; -madaniy-ma'rifiy; -ekzotik; -agroturizm.	-sog'lomlashtirish va spa-kurortlarni yaratish; -turar joy vositalari tarmog'ini rivojlantirish; -qo'shimcha turistik infratuzilmalarni rivojlantirish


Tashkillashtirilishi taklif qilinayotgan klaster turistik-rekreasion salohiyatidan samarali foydalanish ularning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek butun mavsum davomida dam oluvchilarga turistik va rekreasion

9 Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

10 Muallif ishlanmasi .



xizmatlarni xalqaro miqyosda taqdim etishni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu yo'nalishdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Samarqand shahrida tarixiy, madaniy-ma'rifiy va biznes turizmi; Urgut tumanida ekologik, safari, plyaj, sport hamda tibbiy-sog'lomlashtiruvchi turizm; Samarqand tumanida ekologik, sarguzasht va ekzotika, etnografiya hamda qishki sport turlari; Jomboy tumanida tibbiy-sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy va agroturizm; Nurobod tumanida esa sarguzashtli va agroturizm turlaridan yil davomida foydalanish imkoniyati mavjud.



4-rasm. "Samarqand turistik klasteri"ning tavsiya etilayotgan tuzilmasi¹¹

Tavsiya etilayotgan klasterning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishida klaster faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi asosiy vazifani bajarishi lozim. Muvofiqlashtirish kengashining qarorlari va chiqarilgan xulosalari boshqaruv kompaniyasi faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Shu sababli eng katta mas'uliyat muvofiqlashtirish kengashiga yuklanadi.

Klaster tarkibiga kiritilgan turistik korxonalarining uyg'unlashgan holda faoliyat yuritishi natijasida klaster ichidagi aloqalar mustahkamlanadi hamda korxonalarining barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bundan tashqari, klasteri tashkil etishning yana bir muhim ustunligi va joylashuvdagi afzalligi shundan iboratki, mintaqadan Toshkent–Termiz yirik avtomagistrali hamda respublikamizning Sharqi va G'arbini bog'lab turuvchi asosiy temir yo'l liniyasi o'tadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm klasteri — bu alohida turistik korxonalar, tashkilotlar va firmalarning mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish, barcha asosiy faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni optimallashtirish, sinergetik samaraga erishish hamda o'zaro hamkorlik doirasidagi tashkiliy tuzilmalarning raqobatdosh ustunliklarini shakllantirish imkonini beruvchi, turizm tarmoqlarining ham geografik, ham ishlab chiqarish jihatidan o'ziga xosligi va yaqinligini nazarda tutadigan iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning innovatsion shaklidir.

Ishlab chiqilgan klasterning maqsad va vazifalarini aniqlash, texnik topshiriqlarni tayyorlash, maqsadlarni shakllantirish, klaster loyihasi samaradorligini baholash va ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda klasteri huquqiy baholash Samarqand mintaqaviy klasteri asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

11 Muallif ishlanmasi



Umuman olganda, Samarqand mintaqaviy klasteri mintaqaning o'z raqobatbardoshligini ta'minlash, ya'ni o'n, yigirma yil va undan ko'proq davrda turistik korxonalarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani shakllantirish uchun real imkoniyatdir. Bu jarayonda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari sifatida biznes rahbarlarining faol pozitsiyasi hamda mintaqadagi turli tashkiliy guruhlar manfaatlarini o'rtasidagi ijobiy hamkorlikni ko'rsatish mumkin. Shunday ekan, Samarqand mintaqaviy klasterining muvaffaqiyat kaliti rivojlangan raqobat muhiti, samarali boshqaruvga yo'naltirilganlik va mintaq ma'muriyati tomonidan ko'rsatiladigan tizimli ko'mak bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Цихан, Т. В. Кластерная теория экономического развития / Т. В. Цихан // Теория и практика управления. – 2003. – № 5. – С. 64–65.
2. Куценко, Е. С. Кластеры в экономике: практика выявления / Е. С. Куценко // Обозреватель-Observer. – 2009. – № 10. – С. 109–126.
3. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. – 2008. – № 86. – С. 340–344.
4. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. – 2008. – № 86. – С. 340–344.
5. Курмаев, Т. Э. Туристские кластеры как инклюзивное рекреационное поле / Т. Э. Курмаев // Проблемы и перспективы развития образования в России. – 2015. – № 37. – С. 177–179.
6. Васильев, В. А. Создание кластеров малых гостиниц. Повышение их конкурентоспособности / В. А. Васильев // Next Stop. – 2008. – № 1.
7. Волкова, Н. Н., Сахно, Т. В. Промышленный кластер. – Полтава: Асми, 2005. – С. 11.
8. Алимова, М. Т. Худудий туризм бозоринг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида): иқтисод фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент: СамИСИ, 2017. – 194 б.
9. Олланазаров, Б. Д. Кластер ёндашуви асосида туристик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш масаласи // «Иқтисодий ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – 2019. – № 1 (январь–февраль). URL: https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10696
10. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – 2017-йил 06-декабр. – № 06/17/5273/0363.
11. Gazeta.uz. Samarqand turizmiga oid material. – 2022-yil 26-декабр. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/26/samarkand/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>